

Oriental Journal of Education



AN AXIOLOGICAL MODEL FOR DEVELOPING MEDIA-PHILOSOPHICAL KNOWLEDGE IN HIGHER EDUCATION: THEORETICAL ANALYSIS AND PRACTICAL SOLUTIONS

Izzatillo Mirabdullayev

Senior Lecturer, Department of Economics

Faculty of Economics

University of Economics and Pedagogy (NOTM)

izzatillomirzabdullayev9894@gmail.com

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: media philosophy, axiological model, media culture, media literacy, critical thinking, value system, media axiology, spiritual immunity, digital society, media manipulation.

Received: 15.04.26

Accepted: 16.04.26

Published: 17.04.26

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations and practical aspects of an axiological model for developing media-philosophical knowledge in higher education. It highlights the factors influencing students' consciousness in the digital information space, the necessity of understanding media manipulation, and the formation of media culture. The study reveals the content of a model consisting of axiological, cognitive, reflective, and ethical components, and proposes effective pedagogical solutions aimed at developing media-philosophical competencies.

OLIV TA'LIMDA MEDIAFALSAFIY BILIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING AKSIOLOGIK MODEL: NAZARIY TAHLIL VA AMALIY YECHIMLAR

Izzatillo Mirabdullayev

Iqtisodiyot kafedrasida katta o'qituvchisi

iqtisodiyot fakulteti

University of Economics and Pedagogy NOTM

izzatillomirzabdullayev9894@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: mediafalsafa, aksiologik model, media madaniyat, media savodxonlik, tanqidiy tafakkur, qadriyatlar tizimi, media aksiologiyasi, ma'naviy immunitet, raqamli jamiyat, media manipulyatsiya.

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'limda mediafalsafiy bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan aksiologik modelning nazariy asoslari va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Raqamli axborot makonida talaba ongiga ta'sir etuvchi omillar, media manipulyatsiyalarni anglash zaruriyati hamda media madaniyatning

shakllanishi yoritiladi. Tadqiqotda aksiologik, kognitiv, refleksiv va axloqiy komponentlardan iborat modelning mazmuni ochib berilib, mediafalsafiy kompetensiyalarni rivojlantirishga oid samarali pedagogik yechimlar taklif etilgan.

АКСИОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ МЕДИАФИЛОСОФСКИХ ЗНАНИЙ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ

Иzzatillo Mirabdullaev

Экономический факультет

Старший преподаватель кафедры экономики

University of Economics and Pedagogy (NOTM)

izzatillomirzabdullayev9894@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: медиафилософия, аксиологическая модель, медиакультура, медиаграмотность, критическое мышление, система ценностей, медиа-аксиология, духовный иммунитет, цифровое общество, медийная манипуляция.

Аннотация: В статье анализируются теоретические основы и практические аспекты аксиологической модели развития медиафилософских знаний в системе высшего образования. Освещаются факторы, влияющие на сознание студентов в цифровом информационном пространстве, необходимость осмысления медийных манипуляций, а также формирование медиакультуры. В исследовании раскрывается содержание модели, включающей аксиологический, когнитивный, рефлексивный и нравственный компоненты, и предлагаются эффективные педагогические решения, направленные на развитие медиафилософских компетенций.

Kirish. Raqamli texnologiyalar keng ommalashgan bugungi sharoitda insonning dunyoni idrok etishi, axborotni qabul qilishi va qayta ishlashi jarayonlari tubdan o'zgarib bormoqda. Axborot oqimlarining ko'pligi, media maydonning ta'sirchanligi, virtual kommunikatsiya shakllarining kengayishi ayniqsa talaba yoshlar ongida yangi intellektual va ma'naviy muammolarni yuzaga chiqaradi. Bunday vaziyatda media hodisalarini faqat informatsion yoki texnik jarayon sifatida emas, balki falsafiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, ya'ni mediafalsafiy bilimlarni shakllantirish zarurati kuchayadi. Mediafalsafiy bilimlar talabalarga media kontent ortida turgan qadriyatlar, g'oyalar, mafkuraviy yo'nalishlar va ijtimoiy oqibatlarini anglash imkonini beradi. Shu bois mediafalsafiy tayyorgarlik raqamli jamiyatda shaxsning intellektual mustaqilligi, ma'naviy immuniteti va ijtimoiy mas'uliyatini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni, balki talabalarning media madaniyati va media tafakkurini shakllantirish uchun ham mas'ul bo'lgan ijtimoiy institutdir. Media madaniyat talabani qabul qilish madaniyati, tanqidiy fikrlashi, kommunikativ xulqi va estetik didini o'z ichiga oladi. Media tafakkur esa media vositalari orqali berilayotgan tasvir va matnlarni mazmunan anglash, ularni tahlil qilish va baholashga qaratilgan fikrlash uslubidir. Agar oliy ta'limda media madaniyat va media tafakkur masalalariga yetarlicha e'tibor berilmasa, talaba axborot iste'molchisiga aylanib qolishi, manipulyativ ta'sirlarga beriluvchan bo'lishi mumkin. Aksincha, o'quv jarayoniga mediafalsafiy kurslar, tanqidiy tahlil mashg'ulotlari, media kontentni sharhlash va muhokama qilish amaliyotlari kiritilganda talabalarda axborot bilan ishlash madaniyati, mas'uliyatli pozitsiya va mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa oliy ta'lim darajasida intellektual va ma'naviy jihatdan yetuk kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Mediafalsafiy bilimlarni rivojlantirish jarayonida oddiy informatsion yondashuv yetarli bo'lmaydi; axborotni qadriyatlar nuqtai nazaridan baholashni ta'minlaydigan aksiologik yondashuv zarur. Aksiologik yondashuv media ta'limda "nimani bilish kerak?" degan savoldan tashqari, "nimani qadrlash lozim?", "qaysi axborot ma'naviy jihatdan foydali yoki zararli?", "media kontent shaxs va jamiyatga qanday axloqiy-estetik ta'sir ko'rsatmoqda?" kabi savollarga javob izlashni ko'zda tutadi. Bunday yondashuv talabani media vositalaridan foydalanish jarayonini ma'naviy mezonlar bilan uyg'unlashtiradi, uning ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan barqaror pozitsiyani shakllantirishga yordam beradi. Shuning uchun media ta'limni aksiologik asosda tashkil etish, mediafalsafiy bilimlarni aynan qadriyatga yo'naltirilgan model orqali rivojlantirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb vazifadir.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda mediafalsafiy bilimlar oliy ta'lim sharoitida maxsus aksiologik model orqali talqin etiladi va bu modelning komponentlari hamda ishlash mexanizmi izchil asoslanadi. Mediafalsafiy bilimlarni faqat media savodxonlik darajasida emas, balki qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lgan integrativ hodisa sifatida o'rganish taklif etiladi. Shuningdek, talabalarda mediafalsafiy bilimlarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar – media madaniyat, media tafakkur, aks ettiruvchi-analitik faoliyat va axloqiy-etik pozitsiya – yagona aksiologik model doirasida tahlil qilinadi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini zamonaviy aksiologiya, mediafalsafa, ta'lim falsafasi, shuningdek, tanqidiy pedagogika va kommunikativ yondashuvga oid konsepsiyalar tashkil etadi. Ular asosida media ta'lim jarayonini qadriyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan va reflektiv xarakterdagi pedagogik tizim sifatida ko'rish imkoniyati yuzaga keladi.

Asosiy qism. Mediafalsafa – media hodisalarini, axborot texnologiyalarini va kommunikatsiya jarayonlarini falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladigan ilmiy yo'nalishdir. U media vositalarining mohiyatini, ularning inson ongiga, ijtimoiy munosabatlarga, qadriyatlar tizimiga va madaniy muhitga

ko'rsatadigan ta'sirini o'rganadi. Mediafalsafa media makonini alohida ijtimoiy-madaniy reallik, ma'no va qadriyatlar ishlab chiqariladigan maydon sifatida talqin qiladi.

Oliy ta'limda mediafalsafaning o'rni, avvalo, talabalarda media voqelikni chuqur va mustaqil anglash, axborotni nafaqat iste'mol qilish, balki uni tahlil qilish va baholash qobiliyatini shakllantirish bilan belgilanadi. Mediafalsafiy bilimlar talabalarga raqamli axborot muhiti ortidagi mafkuraviy, iqtisodiy, siyosiy va ideologik omillarni anglashga yordam beradi. Shu ma'noda mediafalsafa ta'lim jarayonida tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi, ma'naviy immunitetni mustahkamlaydigan muhim nazariy asos sifatida qaraladi.

Mediafalsafa ichida media ontologiyasi, media gnoseologiyasi va media aksiologiyasi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan uch asosiy yo'nalish sifatida ajratib ko'rsatiladi. Media ontologiyasi media makonning "mavjudligi"ni, ya'ni uning qanday reallik turi ekanini, virtual va real hayot o'rtasidagi chegara va o'zaro ta'sirni o'rganadi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlar va virtual platformalar inson hayotini qay darajada "reallik" sifatida egallab borayotgani ontologik tahlil ob'ektidir.

Media gnoseologiyasi esa media orqali berilayotgan axborotni bilish, tushunish va talqin qilish jarayonini tahlil qiladi. U axborotning haqqoniyligi, manbaning ishonchliligi, media xabarlarining ma'no qatlamlari, interpretatsiya jarayonlari va qabul qiluvchi sub'yektning bilish faoliyatiga e'tibor qaratadi.

Media aksiologiyasi esa media makonidagi qadriyatlar, axloqiy mezonlar va ma'naviy yo'nalishlarni o'rganadi. Media mahsulotlari qaysi qadriy g'oyalarni targ'ib qilayotgani, qaysi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashi yoki zaiflashtirishi, shaxs va jamiyat ma'naviy qiyofasiga qaysi tomondan ta'sir qilishi aksiologik tahlil mavzusidir. Ontologik, gnoseologik va aksiologik yondashuvlar birgalikda mediafalsafiy bilimlarning yaxlit tizimini hosil qilib, talaba ongida media voqelikka nisbatan mukammal qarashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi axborot muhitida mediafalsafiy bilimlar bir qator muhim funksiyalarni bajaradi.

Birinchi, tanqidiy-funksional vazifa: talabalarga axborotning kelib chiqishi, maqsadi va ma'naviy oqibatlarini tahlil qilish imkonini beradi.

Ikkinchi, orientatsion (yo'naltiruvchi) vazifa: media makonida turli qarama-qarshi g'oyalar, qadriyatlar va pozitsiyalar orasida yo'l topish, ma'naviy jihatdan maqbul yo'nalishni tanlashga yordam beradi.

Uchinchi, tarbiyaviy vazifa: mediafalsafiy bilimlar orqali shaxsda axloqiy mas'uliyat, javobgarlik, hurmat, bag'rikenglik kabi sifatlar mustahkamlanadi.

To'rtinchi, himoya-funksional vazifa: feyk axborot, manipulyativ kontent va agressiv propaganda ta'sirini kamaytiradigan ma'naviy-psixologik immunitetni shakllantiradi. Shunday qilib, mediafalsafiy bilimlar zamonaviy axborot muhitida talabaning shaxsiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Aksiologik yondashuv – reallikni, inson faoliyatini va ta’lim jarayonini qadriyatlar prizmasida tahlil qilishga asoslanadi. Bu yondashuvda inson qadriyatlar yaratadigan va ularni tanlaydigan mavjudot sifatida qaraladi. Aksiologik yondashuv uchun “nima bor?” yoki “nimalarni bilish kerak?” degan savollardan ko‘ra “nimani qadrlash lozim?”, “nimaga xizmat qilmoqda?”, “qaysi ma’naviy ma’noga ega?” kabi savollar ustuvor hisoblanadi.

Raqamli jamiyat sharoitida bu yondashuv media axborotni baholashda, ta’lim mazmunini shakllantirishda, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda asosiy falsafiy mezon sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, yoshlar ongini turli qarama-qarshi axborotlar egallab borayotgan bir vaqtda aksiologik yondashuv ularning ma’naviy yo‘nalishini aniqlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shaxs kamoloti faqat bilim va ko‘nikmalarni egallash bilan cheklanmaydi; u insonning qanday qadriy yo‘nalishga ega ekani, hayotiy tanlovlari va maqsadlari bilan chambarchas bog‘liq. Qadriyatlar tizimi shaxsning dunyoqarashini, o‘zini jamiyatdagi o‘rnini, boshqalarga munosabatini va axloqiy qarorlarini belgilab beradi. Talabanning ma’naviy yetukligi – u qanday axborotga ishonishi, nimalarni ma’qullashi, nimalarga qarshi turishi bilan ham o‘lchanadi.

Mediafalsafiy bilimlar aynan shu qadriyatlar tizimini ongli ravishda shakllantirishga yordam beradi. Agar talaba axborot oqimi orasida ezgulik, adolat, hurmat, mas’uliyat, vatanparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar mezoniga tayanishni o‘rgansa, uning kamoloti ham ma’naviy jihatdan barqaror bo‘ladi. Demak, qadriyatlar tizimi va shaxs kamoloti o‘rtasidagi ichki bog‘liqlik media ta’limni ma’naviy-axloqiy yo‘nalishga ega jarayon sifatida tashkil etishni talab qiladi.

Global media makoni milliy chegaralarni qisqartirib, turli madaniyatlar, g‘oyalar va turmush tarzi namoyon bo‘ladigan umumiy axborot maydonini yuzaga keltirdi. Bunday sharoitda an’anaviy qadriyatlar, urf-odatlar va axloqiy me’yorlar turli global tendensiyalar ta’sirida qayta ko‘rilmoqda. Individualizm, iste’molchilik falsafasi, tezkor zavq va “muvaffaqiyat”ning tashqi belgilar bilan o‘lchanishi ko‘p hollarda media kontentning asosiy unsurlariga aylanmoqda.

Bu jarayon yoshlar ongida qadriyatlarning nisbiylashuviga, ba’zan esa ularga skeptik munosabatda bo‘lishga olib kelishi mumkin. Shu bois global media makonida qadriyatlar transformatsiyasini ilmiy asosda tahlil qilish, uning ijobiy va salbiy jihatlarini ajrata bilish, talabalarga tanlab va tanqidiy munosabatda bo‘lishni o‘rgatish aksiologik yondashuvning dolzarb vazifalaridan biridir.

Qadriyatga yo‘naltirilgan yondashuv ta’lim mazmunini “quruq bilimlar majmui” bo‘lishidan chiqargan holda, uni shaxsni tarbiyalovchi, ma’naviy jihatdan boyituvchi, ijtimoiy mas’uliyatni shakllantiruvchi tizimga aylantiradi. Bunday yondashuvning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

–talabanning ichki motivatsiyasi kuchayadi, chunki u o‘rganayotgan bilimlarning ma’naviy va hayotiy ahamiyatini anglaydi;

- tanqidiy va refleksiv fikrlash rivojlanadi, axborotga nisbatan ongli masofa paydo bo‘ladi;
- media vositalaridan foydalanish madaniyati, axloqiy mas’uliyat va tolerantlik kuchayadi;
- talaba o‘zining shaxsiy va professional faoliyatini qadriyatlar bilan bog‘liq holda rejalashtirishga o‘rganadi.

Shu tariqa qadriyatga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi mediafalsafiy bilimlarni rivojlantirishda metodologik ustunlikka ega bo‘ladi.

Mediafalsafiy bilimlarni rivojlantirishda talabalarning dastlabki media savodxonligi darajasi muhim omildir. Agar talaba axborotni topish, saralash, solishtirish va elementar tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lsa, mediafalsafiy darajadagi chuqur tahlilga osonroq o‘tadi. Aksincha, media savodxonlik past bo‘lsa, feyk axborotga ishonish, stereotiplarga berilish, bir tomonlama tasvirlarga aldanish ehtimoli kuchayadi. Shu bois oliy ta’limda mediafalsafiy bilimlar media savodxonlikni yangi, chuqur bosqichga ko‘tarish sifatida qaralishi lozim.

Mediafalsafiy bilimlarni samarali rivojlantirish uchun o‘qituvchining o‘zi ham media madaniyat, media axloq, media tafakkur va aksiologik yondashuv bo‘yicha yetarlicha bilim va kompetensiyaga ega bo‘lishi zarur. Pedagog nafaqat nazariy ma’lumot berishi, balki o‘zining shaxsiy media odatlari, axborotga munosabati, talabalarga qo‘yayotgan talablarida ham namuna ko‘rsatishi kerak. O‘qituvchining mediafalsafiy kompetensiyasi past bo‘lgan sharoitda, media bilan bog‘liq mavzular yuzaki yoritilib, talabalarda kerakli refleksiya darajasi shakllanmay qolishi mumkin.

Mediafalsafiy bilimlarni rivojlantirish, avvalo, o‘quv rejalari va dasturlarida bu yo‘nalishga oid kurslar, modul va mavzularning mavjudligi bilan bog‘liq. Agar media, kommunikatsiya, axborot madaniyati va mediafalsafa bo‘yicha maxsus fanlar joriy qilinmagan bo‘lsa, talaba bu masalalarni faqat epizodik ravishda, boshqa fanlar doirasida ko‘rib chiqishi mumkin. Shuningdek, metodik qo‘llanmalar, darsliklar, amaliy mashg‘ulotlar to‘plami, real media materiallari tahliliga asoslangan topshiriqlar ham yetarlicha ishlab chiqilgan bo‘lishi kerak. Metodik baza qanchalik boy bo‘lsa, mediafalsafiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni shunchalik mazmunli va samarali bo‘ladi.

Bugungi kunda talaba turli ijtimoiy tarmoqlar, internet platformalar, video-servislar, onlayn o‘yinlar va reklama muhitida yashaydi. Media kontentning bu xilma-xilligi uni bir tomondan boyitadi, ikkinchi tomondan chalg‘itadi, ba’zan esa ma’naviy jihatdan zaiflashtirishi mumkin. Shuning uchun media kontentning talaba ongiga ta’siri, uning dunyoqarashini shakllantirishdagi roli alohida tahlil qilinishi lozim. Oliy ta’lim bu jarayonga befarq qaray olmaydi: media kontentni birgalikda tahlil qilish, bahslashish, muhokama qilish orqali talaba ongiga ijobiy ta’sir o‘tkazish mumkin.

Mediafalsafiy bilimlarni rivojlantirishning aksiologik modeli – bu talabaning media bilan ishlash jarayonini qadriyatlar asosida tashkil etishni ko‘zda tutuvchi nazariy-amaliy konstruktsiya. Uning asosiy maqsadi – talabalarda mediafalsafiy bilimlarni shunday shakllantirishki, ular media makonida ma’naviy jihatdan barqaror, tanqidiy fikrlovchi va mas’uliyatli shaxs sifatida faoliyat yurita olsun.

Model quyidagi tamoyillarga tayanadi: qadriy yo‘naltirilganlik, shaxsga yo‘naltirilganlik, refleksivlik, tanqidiylik, dialogiklik va integrativlik. Nazariy asos sifatida aksiologiya, mediafalsafa, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim va kommunikativ pedagogika konsepsiyalari olinadi. Bu asoslar modelning ichki mantiqini, mazmunini va amaliy qo‘llanishini belgilab beradi.

Model tarkibida bir nechta o‘zaro bog‘liq komponentlar ajratiladi:

–Aksiologik komponent – media kontentni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mezonida baholash, axborotning ma‘naviy ahamiyatini anglash, qadriyatlar bilan mos kelmaydigan kontentni tanlay bilish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

–Kognitiv komponent – media tizimi, axborot oqimlari, media mexanizmlari haqidagi nazariy bilimlarni ifodalaydi. Talaba media qanday ishlashini, axborot qanday ishlab chiqarilishini va tarqatilishini tushunadi.

–Refleksiv komponent – talabanning o‘z media tajribasini, odatlarini, qabul qilayotgan axborotini tahlil qilish, o‘z xatti-harakatlariga tanqidiy nazar bilan qarash qobiliyatini ifodalaydi.

–Axloqiy komponent – media faoliyatida axloqiy me‘yorlarga amal qilish, shaxs sha‘ni va huquqlarini hurmat qilish, ijtimoiy mas‘uliyatni his etish bilan bog‘liq.

–Kommunikativ komponent – media makonida muloqot madaniyati, fikrni aniq va madaniy ifodalash, muhokamada hurmat va bag‘rikenglikni saqlash ko‘nikmalarini qamrab oladi.

Bu komponentlar bir butun tizim sifatida talabanning mediafalsafiy rivojlanishini ta‘minlaydi.

Aksiologik modelning ishlash mexanizmi o‘quv jarayoniga bosqichma-bosqich integratsiya qilinishi bilan bog‘liq. Avvalo, nazariy fanlar doirasida mediafalsafiy va aksiologik tushunchalar beriladi, so‘ngra amaliy mashg‘ulotlarda real media materiallari asosida tahlil, munozara va refleksiya tashkil etiladi. Talabalar turli vaziyatli topshiriqlar (case-study), rolli o‘yinlar, debatlar, media loyihalar orqali o‘z media tajribasini chuqurlashtiradilar.

Bu model samarali ishlashi uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar zarur: o‘qituvchilarning tegishli kompetensiyasi; metodik ta‘minotning yetarliligi; talabalarning faolligini qo‘llab-quvvatlovchi ochiq muhit; real media kontent bilan ishlash imkoniyati; baholash mezonlarida tanqidiy fikrlash va qadriy yondashuvning alohida e‘tirof etilishi.

Aksiologik model talaba shaxsining mediafalsafiy rivojida yo‘naltiruvchi, tashkillashtiruvchi va mustahkamlovchi funksiyalarni bajaradi. Yo‘naltiruvchi funktsiya – talabanning mediafazodagi xatti-harakatlarini qadriyatlar asosida boshqarishga ko‘maklashadi. Tashkillashtiruvchi funktsiya – mediafalsafiy bilim va ko‘nikmalarni izchil, tizimli shakllantirishga xizmat qiladi. Mustahkamlovchi funktsiya – talabanning ilgari egallagan bilim va qadriyatlarini real media tajriba orqali mustahkamlashga, barqaror hayotiy pozitsiya sifatida shakllantirishga imkon yaratadi.

Aksiologik modelni oliy ta‘limga tatbiq etishda maxsus o‘quv modullarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Bu modullar mediafalsafaning nazariy asoslari, qadriyatlar tizimi, media madaniyat,

media axloq, tanqidiy tahlil usullari, manipulyatsiyani aniqlash kabi mavzularni qamrab olishi mumkin. Har bir modulda nazariy ma'lumot bilan birga amaliy topshiriqlar, tahliliy mashg'ulotlar va mustaqil izlanish vazifalari nazarda tutiladi.

Case-study usuli real media vaziyatlarini tahlil qilish, ularning maqsadi, qadriy yo'nalishi va ehtimoliy oqibatlarini muhokama qilish imkonini beradi. Dialogik ta'lim esa talabalarning teng huquqli ishtirokchilik asosida fikr almashishiga, turli nuqtai nazarlarni qadriy mezonlarda baholashiga xizmat qiladi. Media interpretatsiya mashqlari – matn, tasvir, video va audio materiallarni mazmuniy, axloqiy va estetik jihatdan sharhlash orqali media tafakkurni chuqurlashtiradi.

Aksiologik model doirasida media kontentni tahlil qilishda maxsus texnologiyalar qo'llanadi: “axborot manbaini aniqlash”, “maqsad va auditoriyani tahlil qilish”, “qadriyatlar va stereotiplarni ajratib ko'rsatish”, “axloqiy-ijtimoiy oqibatlarni baholash” kabi bosqichlar taklif etiladi. Talabalar bu texnologiyalar asosida reklamalar, xabarlar, videoroliklar, blog kontentni mustaqil tahlil qilib, o'z xulosalarini yozma yoki og'zaki shaklda ifodalaydilar.

Raqamli axborot makonida manipulyativ texnologiyalar tobora murakkablashib borayotgan hozirgi sharoitda talabalarda media orqali ongga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan yashirin mexanizmlarni anglash va ulardan himoyalanih ko'nikmalarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy immunitet deganda shaxsning axborot bosimi ostida o'z fikrini yo'qotib qo'ymasligi, turli manipulyativ usullarni tanib olishi, dalilga asoslangan fikr yuritishi va o'z qadriyatlariga zid bo'lgan kontentni ongli ravishda rad eta olish qobiliyati tushuniladi. Bunday immunitetni shakllantirish bir necha amaliy-uslubiy yondashuvlarni talab qiladi. Avvalo, feyk axborotlarni aniqlashga qaratilgan mashg'ulotlar talabalarga media materiallarning haqiqiyiligini tekshirish mezonlarini o'rgatadi. Bu jarayonda axborot manbasini tekshirish, fakt-cheking amaliyotini yo'lga qo'yish, tasviriy yoki videomateriallar shaklidagi vizual dalillarni tahlil qilish kabi ko'nikmalar mustahkamlanadi. Shuningdek, reklama, propaganda, ijtimoiy tarmoqlardagi trendlar yoki siyosiy xabarlar ortida yashirin maqsadlarni anglashga qaratilgan manipulyativ texnikalarni tahlil qilish talabaning media tafakkurini chuqurlashtiradi; bu orqali u axborotning psixologik ta'sir mexanizmlarini, emotsional bosim, stereotip yaratish, qo'rquv yoki hayajon uyg'otish kabi manipulativ elementlarni farqlay oladi.

Talabalarga bir xil voqeaning turli sayt, telekanal yoki ijtimoiy tarmoqda qanday talqin qilinayotganini solishtirishni o'rgatish ham muhimdir. Turli media manbalarini qiyoslash orqali axborotning nisbiyligi, uning mazmuni va aks ettirish uslubiga ko'ra o'zgarishi anglanadi; natijada talaba voqealarga biryoqlama emas, balki ko'p qirrali yondashishga o'rganadi. Bundan tashqari, har qanday media xabariga nisbatan “alternativ nuqtai nazar” ishlab chiqish talabaning analitik tafakkurini mustahkamlaydi. U berilgan xabarga qarshi turuvchi dalillarni izlaydi, muqobil izoh va g'oyalarni shakllantiradi, axborotning mohiyatini yanada chuqurroq anglashga intiladi. Shu tariqa tashkil etilgan mashg'ulotlar talabaning faqat media kontent mazmunini bilish darajasini oshirib qolmay, balki uni

axborot qarshisida mas'ul, ongli va mustaqil pozitsiya egala oladigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida mediafalsafiy bilimlarni aksiologik model asosida rivojlantirish yagona metodik va tashkiliy yondashuvni talab etadi. Avvalo, o'quv rejalari va dasturlariga mediafalsafa, media madaniyat, media axloq kabi fanlarni kiritish zarur bo'lib, bu orqali media jarayonlarini nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganish imkoniyati yaratiladi. Bunday fanlar talabalarning media kontentga nisbatan mas'uliyatli va tanqidiy munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mediafalsafiy yondashuvni pedagogika, sotsiologiya, psixologiya, san'atshunoslik kabi boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmuniga singdirish orqali tarmoqlararo integratsiyani ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Bu interdisiplinar yondashuv talabalarda medialarni turli nazariy rakurslardan tahlil qilish imkoniyatini kengaytirib, media jarayonlarining jamiyat hayotidagi murakkab va ko'p qirrali ahamiyatini ochib beradi.

Mazkur jarayon samarali bo'lishi uchun pedagoglarning o'zi ham mediafalsafiy savodxonlikka ega bo'lishi talab etiladi. Shu ma'noda malaka oshirish kurslari, seminar va treninglar tashkil etish o'qituvchilarning zamonaviy media tendensiyalari, manipulyativ texnikalar, axborot xavfsizligi va media etikasi bo'yicha xabardorligini oshiradi, natijada ta'lim jarayonining sifati yuksaladi. Talabalar faoliyatini yanada faollashtirish uchun media loyihalarni qo'llab-quvvatlash, media klublar tashkil etish, munozara va debatlar o'tkazish, onlayn forumlar yaratish maqsadga muvofiq bo'lib, bular mustaqil izlanish, muloqot madaniyati, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va interaktiv vositalardan foydalanish mediafalsafiy bilimlarni amalda sinab ko'rish va mustahkamlash imkonini beradi. Biroq bu vositalarning o'zi ham qadriyatlar nuqtai nazaridan baholanishi lozim: axloqiy me'yorlarga rioya qilish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, onlayn muloqotda madaniy xulqni saqlash kabi jihatlar doimo nazarda tutilishi kerak. Shu tarzda ishlab chiqilgan va izchil qo'llanilgan pedagogik strategiyalar orqali aksiologik model oliy ta'lim tizimiga chuqur singdiriladi, talabalarda mediafalsafiy bilimlar, tanqidiy tafakkur va media orqali ongga ta'sir ko'rsatishga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirish uchun mustahkam zamin yaratiladi.

Xulosa. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli jamiyatning murakkab va dinamik axborot muhiti shaxsning, xususan talabalarning dunyoqarashi, fikrlash madaniyati va axloqiy qarashlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqot davomida mediafalsafiy bilimlarning zamonaviy axborot jarayonlarini to'g'ri anglash, media kontentning mazmun va maqsadini baholash hamda shaxsning ma'naviy barqarorligini ta'minlashdagi ustuvor o'rni ilmiy asosda yoritildi. Media ontologiyasi, gnoseologiyasi va aksiologiyasining o'zaro bog'liqligi, shuningdek, mediafalsafiy yondashuvning talaba shaxsining intellektual va axloqiy rivojiga ko'rsatadigan ta'siri tadqiqot natijalarining yadro qismini tashkil etdi.

Aksiologik model mediafalsafiy bilimlarni rivojlantirish jarayonini tizimli, qadriyatga yo'naltirilgan va shaxsga yo'naltirilgan shaklda tashkil etish imkonini berishi bilan ajralib turadi. Modelning aksiologik, kognitiv, reflektiv, axloqiy va kommunikativ komponentlari talabaning media bilan ishlash madaniyatini kompleks tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, modelning manipulyativ ta'sirlarga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan qismi talabaning media makonidagi mustaqil pozitsiyasini mustahkamlashi bilan e'tiborga loyiqdir. Aksiologik yondashuvning ustunligi shundaki, u media ta'limni faqat texnik bilimlar yig'indisi sifatida emas, balki shaxsning ma'naviy kamoloti va tanqidiy tafakkurini rivojlantiruvchi jarayon sifatida ko'radi.

Oliy ta'lim tizimi uchun taklif etilgan metodologik va amaliy tavsiyalar mediafalsafiy ta'lim jarayonini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. O'quv dasturlariga mediafalsafa, media madaniyat va media axloq fanlarini kiritish; tarmoqlararo integrativ yondashuvni joriy etish; o'qituvchilarning mediafalsafiy kompetensiyasini oshirish; media loyihalar, debatlar va media klublar tashkil etish; real media kontent asosida tahliliy mashg'ulotlarni ko'paytirish kabi strategiyalar talabalarda mediafalsafiy ko'nikmalarni tizimli rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, raqamli vositalardan foydalanishni qadriyatlar mezonida baholash talabalarning axborot madaniyatini yanada yuksaltiradi.

Kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalishlar ham belgilandi. Xususan, media manipulyatsiyalarning psixologik mexanizmlarini chuqur o'rganish, mediafalsafiy ta'limning raqamli pedagogika bilan integratsiyasini ishlab chiqish, talabalarda media etikasi va virtual madaniyatning shakllanish jarayonini empirik tadqiq qilish hamda aksiologik modelni turli ta'lim yo'nalishlariga moslashtirish kelajakdagi ilmiy izlanishlar uchun dolzarb hisoblanadi. Ushbu tadqiqot mediafalsafiy bilimlarni rivojlantirish jarayonini yangi metodologik bosqichga ko'tarishga, media makonida mustahkam qadriyatli pozitsiyaga ega bo'lgan intellektual yetuk shaxsni tarbiyalashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy yechimlarni ishlab chiqishga munosib hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Федотова, М. Н. Цифровая культура и трансформация ценностей молодежи // Социальные науки и современность. – 2021. – №3. – С. 45-54.
2. Kellner, D. Media Culture: Cultural Studies, Identity and Politics Between the Modern and the Postmodern // Routledge. – New York, 1995. – 324 p.
3. Горохов, В. Г. Философия медиа: аксиологические аспекты цифровой среды // Философские исследования. – 2019. – №5. – С. 78-86.
4. Xudoyberdiyev, A. Talabalarda media savodxonlikni rivojlantirishning nazariy asoslari // Oliy ta'lim muammolari. – 2020. – №6. – B. 92-100.
5. Olimjonova, S. Oliy ta'limda media kompetensiyalarni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari // Pedagogika va innovatsiyalar jurnali. – 2022. – №5. – B. 134-142.

6.Бурова, Е. А. Медиаобразование в современном обществе: теоретико-методологические подходы // Вопросы философии. – 2020. – №7. – С. 112-121.

7.Rasulov, B. Media madaniyat va yoshlar dunyoqarashi: falsafiy tahlil // O‘zbekiston filologiyasi va falsafasi jurnali. – 2022. – №2. – B. 58-66.

8.ouldry, N. Media, Society, World: Social Theory and Digital Media Practice // Polity Press. – Cambridge, 2012. – 256 p.

9.Sattorova, D. Raqamli jamiyatda qadriyatlarning transformatsiyasi va yoshlar ongiga ta’siri // Falsafa va huquq. – 2023. – №1. – B. 41-48.